

YOSHLAR SIYOSATINING NAZARIY ASOSLARI.

Norinova Dilbaroy Mahammadjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy va amaliy fanlar Fakulteti “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrasiga o'qituvchisi:

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlar siyosatining nazariy-metodologik asoslari, shakllanish bosqichlari, xalqaro yondashuvlar va milliy tajriba tahlil qilinadi. Shu orqali yoshlar bilan ishlash sohasidagi asosiy yo'nalishlar va istiqbolli strategiyalar aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *yoshlar siyosati, davlat dasturi, yoshlar tashkilotlari, ijtimoiy himoya, ta'lim, innovatsiya, yoshlarga oid huquqiy asosla*

KIRISH

Har qanday jamiyat taraqqiyoti, xalqning kelajagi va barqarorligi bevosita yosh avlodning salohiyati, intellekti, ma'naviy va jismoniy barkamolligiga bog'liqdir. Yoshlar har bir millatning suyanchi, tayanchi bo'lib, ularning kamoloti yurt istiqbolini belgilaydi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov yoshlarning o'rni va ahamiyatini chuqur anglab, "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, dono, bilimli va baxtli bo'lishlari shart"²⁵ degan da'vati bilan yoshlar siyosatining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishini ta'minladi. Bu g'oya hozirgi kunda ham amaliy siyosatning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida yoshlar kuchli ijtimoiy, demografik va intellektual salohiyatga ega qatlam sifatida alohida o'rinn tutadi. Har qanday davlatning kelajagi, ijtimoiy barqarorligi va innovatsion salohiyati yosh avlodning qanday tarbiyalanayotgani, ularning jamiyatdagi o'rni va imkoniyatlariga bevosita bog'liq. Shu bois, yoshlar siyosati ko'plab mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham ustuvor strategik yo'nalish sifatida qaraladi.

Yoshlar siyosati - bu davlat tomonidan yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir. Ushbu siyosat yoshlarning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni ish bilan ta'minlash, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishiga yordam beruvchi kompleks mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

Yoshlar siyosatining nazariy asoslari sotsiologiya, siyosatshunoslik, pedagogika, psixologiya, huquqshunoslik kabi fanlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu siyosatni ishlab chiqishda yoshlarning ehtiyojlari, manfaatlari, ijtimoiy moslashuvi va huquqiy maqomi e'tiborga olinadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab rivojlangan davlatlar yoshlar siyosatini alohida davlat dasturlari orqali shakllantirishga kirishdi. Jumladan, BMT, YuNESKO, YUNISEF va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan yoshlarning huquqlari, bandligi, ta'limga kirish imkoniyati, sog'ligi va faol ishtirokini rag'batlantirishga doir konseptual yondashuvlar ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda ham mustaqillik yillaridan boshlab yoshlar siyosatiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Xususan, 2016-yilda "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, yoshlarning ijtimoiy huquqlari, ta'lim, mehnat, sog'liqni saqlash, axborot va boshqa

²⁵ Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat.

sohalarda erkin va teng ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi²⁶. 2017-yilda esa Prezident Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqi tashkil etilib, davlat yoshlar siyosatining amaliy ijrosi yangi bosqichga ko'tarildi.²⁷

Yoshlar siyosati tushunchasi va uning mohiyati

Yoshlar siyosati - bu yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan tizimli davlat chora-tadbirlari majmuasidir. Mazkur siyosat yoshlarning har tomonlama rivojlanishi, innovatsion fikrlashini rag'batlantirish va ularga zamonaviy bilim berish, mehnatga yo'naltirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Yoshlar siyosatining nazariy asoslari ijtimoiy fanlar, xususan, sotsiologiya, siyosatshunoslik, pedagogika va psixologiya fanlari bilan bevosita bog'liq. Siyosatshunoslik nuqtai nazaridan, yoshlar siyosati ijtimoiy guruhlar va davlat o'rtaсидagi munosabatlar tizimini tashkil etadi. Bu munosabatlar yoshlarning jamiyatdagi mavqeini belgilash, ularning huquqlarini himoya qilish va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan.

2016-yilda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, yoshlar bilan ishlash borasida huquqiy mexanizmlar takomillashtirildi. 2017-yilda Prezident Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tashkil etildi. Bu yangi bosqichda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, tadbirdorlik salohiyatini rag'batlantirish kabi vazifalar amalga oshirildi.

Yoshlar siyosatining maqsad va vazifalari

Yoshlar siyosatining bosh maqsadi - jamiyatda o'sib kelayotgan avlodning intellektual, axloqiy, ma'naviy, jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Ushbu siyosat quyidagi vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan:

- Sivilizatsion ijtimoiy shakllanish uchun zarur muhit yaratish;
- Innovatsion va mustaqil faoliyatni rag'batlantirish;
- Yangi ijtimoiy munosabatlar va faoliyat shakllarini rivojlantirish;
- Kasbga yo'naltirish va bandlikni ta'minlash;
- Huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy himoyani ta'minlash.

O'zbekiston yoshlariga oid davlat siyosati doirasida quyidagi muhim loyihibar va tashabbuslar amalga oshirildi²⁸:

- "Yoshlar - kelajagimiz" davlat dasturi doirasida minglab biznes loyihibar moliyalashtirildi;
- "Yoshlar mehnat guzari"lar, "Yosh tadbirdorlar markazi"lar faoliyati yo'lga qo'yildi;
- "Prezident maktablari", "Ijod maktablari", "Temurbeklar maktabi" kabi zamonaviy ta'lim maskanlari ochildi;
- 5 ta muhim tashabbus doirasida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish choralarini ko'rildi²⁹.

Shunga qaramay, ushbu sohada bir qator muammolar mayjud: uyushmagan yoshlar bilan ishlash, chekka hududlarda imkoniyatlar yetishmasligi, yoshlar o'rtaсидida

²⁶ Lex.uz (2016). O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/3011230>

²⁷ Mirziyoyev, Sh.M. (2017). Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston.

²⁸ Lex.uz (2018). "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi. <https://lex.uz/docs/3765221>

²⁹ Yoshlarittifoqi.uz. (2023). O'zbekiston Yoshlar ittifoqining rasmiy sayti. <https://yoshlarittifoqi.uz>

huquqbuzarliklarning oldini olishdagi kamchiliklar, ayrim hududlarda yoshlar siyosatini amalga oshirishdagi byurokratik to'siqlar. Kamolot harakatining o'z vaqtida ommaviylashmasligi ham yoshlar bilan ishlashda yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda.

Xulosa. Yoshlar siyosati har bir jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lib, u orqali davlat yosh avlodning intellektual, ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga erishadi. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining tizimli asoslari yaratilgan bo'lsa-da, uni yanada takomillashtirish, amaliy mexanizmlarni kuchaytirish va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirishga doir sa'y-harakatlarni davom ettirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat.
2. Lex.uz (2016). O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/3011230>
3. Mirziyoyev, Sh.M. (2017). Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston.
4. Lex.uz (2018). “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi. <https://lex.uz/docs/3765221>
5. O'zbekiston Yoshlar ittifoqining rasmiy sayti. <https://yoshlarittifoqi.uz>